



SAKLAR VA QUYISOY MADANIYATLARI

Ismailov Ulug'bek O'ktamboy o'g'li

Zangiota tuman ixtisoslashtirilgan maktabi, maktab maslahatchisi

E-mail: ismailovulugbek535@gmail.com

Ro'zmetov Mardonbek Aminboy o'g'li

Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti, Tarix fakulteti magistri

E-mail: mardon0205@gmail.com

Abdullayev Dilmurod Marks o'g'li

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti, Tarix fakulteti magistri

E-mail: abdullayevdilmurod858@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada ilk temir davriga oid Saklar va Quyisoy madaniyatlari tarixi va rivojlanishi, ilm-fan va iqtisodiy sohalarida haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: kamin, artefakt, arxaik, an'ana, akinak, suvoriy, san'at, sagaris.

Kirish. Umuminsoniyat tarixi va madaniy merosi jamiki sivilizatsiyalarning ma'naviy poydevori vazifasini bajaradi. Shu sababdan insoniyat tomonidan yaratilgan tarixiy-madaniy meros obyektlarini ilmiy asosda o'rganish, saqlash va ta'mirlashga katta e'tibor qaratiladi. Mintaqaviy va umumjaxon ahamiyatiga molik jarayonlar kechgan Xorazm vohasinnng ilk temir davri moddiy madaniyat yodgorliklarini o'rganish o'zbek davlatchiligining birlamchi asosi shakllanganligi jarayonlarini anglashda muhim ahamiyat kasb etadi. Dunyoning ko'plab ilmiy tadqiqot markazlarida Markaziy Osiyoning qadimgi davri tarixi va moddiy madaniyatini, jamiyat taraqqiyotini, mafkuraviy, etnomadaniy jarayonlarini o'rganish bo'yicha bir qancha tadqiqotlar olib borilmoqda. Markaziy Osiyoning tarkibiy qismi hisoblangan Xorazm vohasida kechgan migratsiya va etnomadaniy jarayonlar, vohada ilk shaharlar va davlatchilikning paydo bo'lishi kabi masalalar yetarli darajada o'rganilmagan.

Quyisoy madaniyati Amudaryo daryosining qadimgi Sariqamish deltasida ilk temir davri madaniyatiga oid bo'lib mil. avv. VII-IV asrlarga oiddir. 1953 yilda B. V. Andrianov tomonidan ochilgan, 1970-1971 yillarda B. I. Vaynberg tomonidan o'rganilgan Quyisoy 2 (Toshauz viloyati, Turkmaniston) manzilgochi nomi bilan atalgan. 1970-yillar B. I. Veinberg tomonidan Quyisoy madaniyatiga oid bo'lgan Tumek-Kichidjik, Tarimkaya qabristonlarini ochib o'rganilgan. Ustunli konstruksiyaning yer osti uylari, yog'ochlardan yasalgan, devorlari loysuvoq qilingan maydoni 100 m² atrofida bo'lgan uy to'liq o'rganilgan, kirish qismi janubdan, markazda 1×1,8 m. o'lchamdagi to'rtburchak shakldagi platformaning markaziy qismida kamin joylashgan) shunigdek qazish jaaryonida 1,5 m uzunlikdagi kirish-koridor aniqlangan.

Majmualar chuqurliklari va kichik ustunli tuzilmalarni ham o‘z ichiga olgan. Mis quyish ishlab chiqarish (mis quymalari, nuqsonli mahsulotlar), qora metallurgiya (shlaklangan metall parchalari va bo‘laklari), firuzani qayta ishlash va undan zargarlik buyumlari va boshqa bezak toshlarini ishlab chiqarish izlari qayd etilgan.

Ilk bosqich (mil. avv. VII-V asrlar) yakka jasadlar bilan tavsiflanadi (orqa tomonga cho‘zilgan, ko‘pincha boshi g‘arbga qaragan) – sayoz oval chuqurlarda, ba‘zan kichik tepalik ostidagi qishloq ustunlariga qamish taxta bilan qoplangan; qabrlar va murdalarning kuydirilishi (krematsiya) holatlari uchraydi.

Keyingi bosqichda (mil. avv. V-IV asrlar oralig‘ida) qo‘rg‘on ostidagi ossuariylarga tozalangan suyaklarni ko‘mish keng tarqalgan. Topilmalardan ot jabduqlari, bir qirrali temir pichoqlar, boshga qismiga joylashtirilgan idishlar; ayollar qabrlarida don qirg‘ichlari, bronza va yarim qimmatbaho toshlardan yasalgan kam sonli taqinchoqlar bor shuningdek qurbonlik keltirilgan altarlarning izlari topilgan. Mahalliy keramika, asosan, qizil yoki qizil-jigarrang rangda bo‘lgan ba‘zan maydalangan chig‘anoqlar aralashmalari bilan qoliplangan.

Qozonchalar, shu jumladan oziq-ovqat saqlash uchun mo‘ljallangan katta idishlar, oshxona idishlari ustunlik qiladi. silindrsimon nayzali o‘lchamlar, kosalar, silindrsimon stakanlar mavjud. Import qilingan taomlar (ba‘zi majmualarda 17% gacha) Marg‘iyona (pushti yoki krem rangli silindrsimon konussimon stakanlar va yuzi ochilgan) va arxaik Daxistondan (Turkmanistonning janubi-g‘arbiy va Eronning shimoli-sharqidagi tarixiy mintaq) keladi. 3 oyoqli yarim sharsimon kosalar, yopiq shakldagi kulrang-gil sayqallangan idishlar, birinchi navbatda ko‘zalar.

Iqtisodiyoti chorvachilik (asosan qoramol, ot, tuya) va yordamchi dehqonchilikka asoslangan. Antropologik materiallarda Janubiy Turkmaniston hududidan bronza davri yodgorliklaridan ma‘lum bo‘lgan dolikokranial komponent mavjud. Ayrim fikrlarga ko‘ra, Quvisoy madaniyatining tashuvchilari Doxiston va Yazdepe madaniyati tutashgan hududdan (zamonaviy Janubiy Turkmaniston va Shimoliy Eron hududida) ko‘chib kelganlar; boshqasiga ko‘ra, Kuysay madaniyati shu asosda rivojlangan. O‘rta Osiyoning janubi-g‘arbiy mintaqalari dehqonchilik madaniyati bilan bog‘liq bo‘lgan sak-massaget madaniyatlari va migrantlar doirasining mahalliy madaniyati. Quvisoy madaniyati Xorazm davlati madaniyatining tarkibiy qismlaridan biriga aylandi.

Quvisoy 2 manzilgohi Amirobod aholi maskanlari singari mudofaa devorlari bilan o‘ralmagan, uy-joylar (yerto‘lalar va kulbalar) tarqoq holda joylashgan bo‘lib, quvisoyliklar muayyan me‘morchilik rejasiga amal qilmaganlar. Quvisoy 2 atrofida sun‘iy sug‘orish inshootlari topilmagan. Mazkur voqea quvisoyliklar qayir yoki lalmikor ziroatchilik bilan shug‘ullanganlar, deb yozishga asos bo‘ldi. Yodgorliklarda topilgan uy hayvonlarining suyaklariga ko‘ra, quvisoyliklar qoramol va mayda chorva boqqanlar, yilqichilik va tuyachilik bilan shug‘ullanganlar.

Arxeologik qazish ishlari paytida Sakarchaga mozor-qo‘rg‘onlaridan olingan uy hayvonlari suyaklari ham Sariqamishbo‘yi hududlarida qoramol boqish va yilqichilikning ustunlik qilganligini ko‘rsatadi.

Quyisoy 2 va Sakarchaga yodgorliklarida topilgan sopol idishlar, bronza va temirdan ishlangan buyumlar o‘xshashlikka ega bo‘lib, umumiy moddiy madaniyat belgilaridan iboratdir. Shu sababli, mil. avv. VII–VI asrlarga oid mahalliy chorvador qabilalar madaniyatini “Sariqamishbo‘yi saklar madaniyati”, deb atash taklif qilingan. Bizningcha, mazkur madaniyatga xos moddiy ashyolarning Janubiy Xorazm va Quyi Amudaryoning o‘ng sohilidagi Oqchadaryo havzasida (Yakkaporson 14 makoni) aniqlanishini inobatga olib, umuman, Janubiy Orolbo‘yi, ya’ni Xorazm vohasi ilk saklarning madaniyati to‘g‘risida so‘z yuritish mumkin.

Dasht hududlarida istiqomat qilgan qadimgi ko‘chmanchilar, dastlab, qoramollarni boqmaganlar, poda tarkibida qoramolning paydo bo‘lishi yarim ko‘chmanchilik va yarim o‘troq turmush tarziga o‘tish bilan izohlangan, ya’ni qoramolni boqish, xususan, yarim o‘troq chorvadorlar xo‘jaligining o‘ziga xos xususiyati hisoblangan. Dovdon vohasi yodgorliklarida ko‘pdan-ko‘p ho‘kiz va sigirlar suyaklarining mavjudligi mil. avv. VII asrda Xorazm aholisi yuqori mahsuldor chorvachilik shakli bilan shug‘ullanishidan dalolat beradi. Uy hayvonlarining suyaklari bilan birga, yodgorliklarda bug‘u, quyon va yirik baliqlar suyaklari topilgan. Chorvachilik mahalliy qabilalar hayotida xo‘jalikning asosiy shakli bo‘lib, ziroatchilik, ovchilik va baliqchilik uning yordamchi mashg‘ulotlari vazifasini bajargan.

Arxeologik ma’lumotlarga ko‘ra, Xorazm vohasi saklari kulolchilik, yigirish va to‘qimachilik, metall, yog‘och, tosh va suyakka ishlov berish bilan shug‘ullanganlar.

Sopol idishlar tasma uslubida qo‘lda yasalgan. Ular xo‘jalik, ro‘zg‘or, oshxona idishlari bo‘lib, xumlar, tuvaklar, tog‘oralar, kosasimon va choynaksimon idishlardan iboratdir. Shuningdek, Quyiisoy va Sakarchaga yodgorliklarida Marg‘iyona va Baqtriya hududlaridan olib kelingan charxda ishlangan Yoz II shaklidagi silindr-konussimon idishlar topilgan 270 mil. avv. VII–VI asrlarga oid saklarning kulolchiligi uy hunari kasbi bo‘lib, bronza davriga mansub dasht qabilalari kulolchilik an‘analarini son va shakl jihatidan yangi asoslarda rivojlantirganlar.

Mazkur davrning hunarmandchilik sohasida erishgan eng katta kashfiyotlaridan biri, bu temirdan ishlangan buyumlar va qurollarning vujudga kelishidir. Temirdan xanjar, pichoq, o‘roq, teshgich va boshqa buyumlar ishlangan. Temir dastlab nodir va qimmatbaho metall bo‘lib, undan zeb-ziynat buyumlari sifatida ham foydalanishgan. Sakarchaga mozor qo‘rg‘onida temirdan ishlangan ikkita bilaguzuk topilgan. Xuddi shunday bilaguzuk Quyi Sirdaryodagi Uygarak mozor qo‘rg‘onida bronza va kumushdan yasalgan bilaguzuklar bilan birga topilgan.

Temirdan yasalgan qurollarning tarqalishi mehnat unumdorligini oshiradi. Bronza davrida Janubiy Orolbo‘yida mehnat qurollarini va ro‘zg‘or buyumlarini chorvador, ziroatchi va ovchi uy sharoitida tayyorlangan bo‘lsa, mil. avv. VII–VI asrlarda temirga ishlov beruvchi mutaxassislar – temirchilar paydo bo‘ladi.

Temirdan nafaqat mehnat qurollari, shuningdek, yarog‘-aslahalar tayyorlangan. Tosh, suyak va yog‘ochga ishlov berish jarayonida temir asbob zarur edi. Shu tufayli temirchilik hunarmandchilikning ixtisoslashgan tarmog‘iga aylandi.

Sakarchaga mozor qo‘rg‘onlarida aniqlangan dafn jihozlari yarog‘-aslahalar, ot-anjomi, bronzadan ishlangan suvliq, to‘qa va qubbalardan iboratdir. Gerodotning: “Saklar (skif qabilasi) uzun cho‘qqili qalpoqlar kiyib, kamon va xanjarlar bilan qurollanganlar, yana ularda ikki qirrali harbiy boltalar – sagarislar bo‘lgan”, degan so‘zlarida saklarning qurol-aslaha va ot-ulovlari haqida to‘g‘ri ma’lumotlar o‘z aksini topgan. Janubiy va Sharqiy Orolbo‘yidagi saklarning yodgorliklarida bronza o‘q uchlari ko‘p miqdorda uchraydi. Ular bargsimon, ikki yoki uch qirrali o‘qlar bo‘lgan. Sakarchaga va Uygarak mozor qo‘rg‘onlarida topilgan bronza to‘qa va qubba-lardagi yirtqich qushlar va hayvonlar tasvirlarida yaqin xususiyatlar va katta o‘xshashliklar bor. Sakarchaga dafn jihozlari ichida ot abzali tarkibidagi yuganchalarni bezatgan bronza qubbalarda yirtqich qush, qoplon va to‘ng‘izlar tasvirlari mavjud. Ular Yevrosiyo dasht qabilalari san’atiga xos hayvon suratlarini ishlash “skif-sibir” uslubida ishlangan.

Sakarchagada dafn etilgan ayollarning qabrlarida yorg‘uchoqlar topilgan. Ma’lumki, bu qurollarning ish vazifasi ro‘zg‘orda don yormalash bilan bog‘liq, ammo dafn marosimlarida ulardan hosildorlik e’tiqodining ramzi sifatida foydalangan bo‘lishi mumkin.

Quyisoy 2 manzilgohida va Sakarchaga mozor qo‘rg‘onlarida turli xil marjonlar topilgan. Ular oqtosh, lojuvard, sardolik va feruzadan yasalgan. Feruza konlari Sultonuvays tog‘larida aniqlangan. Bu borada Suza shahrida Doro I ning saroyini bezatish uchun Xorazmdan feruza yetkazib berilganligi haqidagi qadimgi fors bitiklari xabarlarini aytib o‘tish lozim.

Lojuvard (la’l) Xorazmga uzoq o‘lkalardan olib kelingan. Bu yarim qimmatbaho toshning konlari Badaxshonda, qadimgi Baqtriya chegaralarida joylashgan. Arxeologik tadqiqotlar natijasida Badaxshondan, Eron va Yaqin Sharq mamlakatlariga olib boruvchi qadimgi lojuvard yo‘lining yo‘nalishlari aniqlangan, jumladan, ular O‘rta Osiyoning shimoliy dasht hududlari bilan bog‘langan.

Ilmiy adabiyotlarda janubi-sharqiy Orolbo‘yi va Qozog‘istondagi Yettisuv saklarining moddiy madaniyatidagi umumiy belgilar ko‘chmanchilarning madaniy aloqalari bilan bog‘langan.

Bizning fikrimizcha, ko‘chmanchilarning bunday o‘xshash xo‘jaligi turmush tarzi va dasht qabilalariga xos chuqur ildizlarga ega madaniy an’analar bilan belgilanadi. O.A.Vishnevskaya va M.A.Itina, janubi-sharqiy Orolbo‘yi saklari-ning madaniyatiga xos xususiyatlarni ta’riflab, ularning Andronovo mada-niyati an’analari bilan aloqadorligini qayd etib o‘tganlar.

L.T.Yablonskiyning ta’kidlashicha, O‘rta Osiyo-Qozog‘iston dasht minta-qasidagi saklarning moddiy madaniyati va dafn marosimlarida mavjud o‘xshashlikka qaramasdan, Janubiy Orolbo‘yi saklari ziroatchi aholi atrof-larida istiqomat qilganlar. Quyi Amudaryo hududlarida ziroatchilik, chorvachilik, ovchilik va baliqchilik xo‘jaliklariga asoslangan yarim o‘troq turmush tarzi bronza davridan saqlanib kelgan.

Quyisoy madaniyati yodgorliklarida yirik inshootlar, alohida joylashgan hunarmandchilik ustaxonalari va oziq-ovqat mahsulotlarini saqlash uchun bunyod etilgan omborxonalar topilmagan.

Arxeologik ma’lumotlar asosida, Janubiy Orolbo‘yi saklari jami-yatining mil. avv. VII–VI asrlarga oid ijtimoiy tizimi tiklangan. L.T.Yablonskiyning ta’kidlashicha, ushbu jamiyat to‘rt qismga bo‘lingan – jangchi, suvoriylar, kohinlar va kohina ayollar, urug‘ning oddiy va qashshoq-lashgan vakillari.

Quyi Sirdaryodagi Uygarak mozor qo‘rg‘onlaridagi kohina ayollar qabrlarida e’tiqod va qurbonlikka bag‘ishlangan buyumlar mavjud, ayol – suvoriylar qabrlarida ot anjomlari topilgan. Ushbu ma’lumotlarga asoslanib, sak-massagetlarning jamoalarida ayolning baland o‘rni va ijtimoiy mavqei haqida xulosa chiqarish mumkin.

Yunon tarixchilari Gerodot va Ktesiy sak-massagetlarning ayol yo‘lboshchilariga (To‘maris, Zarina) nisbatan “malika-hukmdor”, “xotin-podsho” kabi tushunchalarni ishlatadilar. Ktesiyning ma’lumotlariga ko‘ra, Midiya shohi Kiaksar hukmronligi davrida (mil. avv. 625-585 yy.) parfyanlar midiyaliklarga qarshi qo‘zg‘olon ko‘tarib, Zarina boshliq saklarni o‘zlariga yordamga chaqirganlar.

Chorva mollarini boqadigan yaylovlar bronza davrida umumiy bo‘lgan. Ilk temir davrida aholi va chorva mollari sonining oshishi natijasida, yaylovlar ham urug‘lar va qabilalar o‘rtasida taqsimlanib borishini taxmin qilish mumkin. Suv havzalari, o‘tloqlar va dasht yaylovlari chorvani boqish va ko‘paytirish uchun asosiy omil bo‘lib xizmat qilgan. Quyisoy madaniyati yodgorliklarining Sariqamishbo‘yi yerlarida joylashuvi xususiyatlariga ko‘ra, Dovdon o‘zani atroflarida aylanasi 100 kilometrni tashkil qilgan dashtlar tegrasida chorva boqish uchun tabiiy imko-niyat yaratilgan.

Ilk temir davrida Quyi Amudaryo va Quyi Sirdaryo Orolbo‘yi hududlarida chorvachilik katta ahamiyatga ega bo‘lib, chorva jamoalarning asosiy boyligiga aylangan. “Avesto”ning eng qadimgi qismlari – Yasht va Yasna boblarida dehqonchilik haqida ma’lumotlar uchramaydi, aksincha, chorvachilik va cho‘ponlar hayotiga oid ma’lumotlar saqlanib qolgan.

“Avesto” chorvadorlar mehnatini ulug‘lab, jangchilar botirligi, ularning qurollari haqida xabar beradi. Saklar jamiyatida harbiy qurollarni ishlab chiqarish, kerakli yarog‘ bilan ta’minlash katta o‘rin tutgan. Yarog‘-aslahalar va ot anjomlarining ishlab chiqarilishi bilan bog‘liq maxsus hunarmandchilik tarmoqlari mavjudligini taxmin qilish mumkin. O‘rta Osiyo va Qozog‘iston dashtlari, tog‘ oldi hududlarida istiqomat qilgan saklar yodgorliklarida bronza – temir oyboltalar (yunon tarixchilari ularni “sagaris” deb atashgan), kalta xanjarlar (“akinak”) va turli o‘q uchlari topilgan. Saklar va massagetlarning jangovar saflari otliq qo‘shin va piyoda jangchilardan iborat bo‘lganligi haqida yozma manbalarda ma’lumotlar bor. Ularning asosiy harbiy qismini suvoriy-o‘qchilar tashkil etgan, jangda sagaris – harbiy oyboltalar va akinak – xanjarlardan foydalanishgan.

Sak-massagetlar hayotida o‘ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy tuzum rivojlangan. Ularning boshqaruv tizimida urug‘ boshlig‘i, qabila yo‘lboshchisi, oqsoqollar kengashi va xalq yig‘ini

hayotiy zarur masalalarni hal qilgan. Xalq yig‘inida barcha qurolli jangchilar qatnashgan. Yig‘inda urush yoki sulh masalalari ham ko‘rib chiqilgan. Mil. avv. VII–VI asrlarda ushbu tizim davlatchilik, ya‘ni siyosiy boshqaruv maqomi darajasiga yetmagan va urug‘-qabila ijtimoiy odatlari, boshqaruv an‘analarini o‘zida aks ettirgan. Qabila yo‘lboshchilarini va qabila uyushmalari harbiy sardorlarini oqso-qollar kengashi va jamoalar yig‘inida saylash odati ilmiy adabiyotlarda “harbiy demokratiya” deb nom olgan.

Ilk temir davri Xorazm vohasida murakkab etnik jarayonlar sodir bo‘lib, turli qabilalarning yoyilishi bilan izohlanadi. Antropologik tadqiqotlarga ko‘ra, bronza davrida Janubiy Orolbo‘yi hududlarida yevropeoid irqi Andronovo madaniyatiga oid qabilalar yashagan bo‘lsa, mil. avv. VII–VI asrlarda, saklar qabrlaridan olingan marhumlarning bosh suyaklari tahliliga ko‘ra, yevropeoid qiyofali va mo‘g‘ul – “mongoloid” irqiga mansub odamlar antropologik belgilarining qo‘shilishi kuzatiladi.

Xulosa. Ilk temir davriga kelib, Xorazm hududlarida chorvador qabilalarning harbiy-siyosiy uyushmalari paydo bo‘ladi. Ular haqida (massagetlar, saka tigraxauda birlashmalari) yozma manbalarda ma‘lumotlar mavjud. Ko‘chmanchilarning mozar-qo‘rg‘onlarida topilgan yarog‘-aslahalar va ot anjomlari, saklar qurol-yarog‘larni rivojlantirish sohasida katta yutuqlarga erishib, ularning qo‘shinlarida yonzma manbalarda qayd etib o‘tilgan “chaqqon otlarga ega” jangchilar, suvoriy-o‘qchilar mavjud bo‘lganidan dalolat beradi. Sak-massagetlarning siyosiy uyushmalari podsholik darajasiga ko‘tarilmagan. Ularning ijtimoiy munosabatlari urug‘-qabila tizimidagi an‘analarga asoslangan edi.

Ilk temir davrida Xorazm vohasiga bosqichma-bosqich Marg‘iyona va Baqtriyadan binokor va hunarmandlarning ko‘chib kelishi natijasida mahalliy madaniyatda tub o‘zgarishlar va yangiliklar namoyon bo‘lgan. Vohada ilgari ma‘lum bo‘lmagan istehkomlar, mudofaa devorlari va yirik binolarning barpo etilishi, qurilishda paxsa va xom g‘ishtdan foydalanishning boshlanishi, amaliy binokorlik bilimlari va uslublarining tarqalishi, kulolchilik charxi va temir qurollardan keng foydalanishni ham janubiy Marg‘iyonna-Baqtriya aholisining migratsiyalari natijasi sifatida tan olish maqsadga muvofiqdir.

Quyisoy, saklar: yarim o‘troq, mavsumiy ko‘chmanchi. Chorvachilik, ziroatchilik, ovchilik, baliqchilik. Kulolchilik (qo‘lda yasalgan idishlar), bronza va temirchilik hunari, yigirish va to‘qimachilik, metall, yog‘och, tosh va suyakka ishlov berish. Urug‘-qabila tuzumi. Urug‘ boshliqlari, qabila yo‘lboshchilari. Jangchi suvoriylar, kohinlar, urug‘ning o‘rtahol va oddiy a‘zolari.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Вайнберг Б.И. Куюсайская культура раннего железного века в Присарыкамьшской дельте Амударьи // Успехи среднеазиатской археологии. – Л.: Наука, 1975.

2. Вайнберг Б.И. Памятники Куюсайской культуры // Кочевники на границах Хорезма. Тр. ХАЭЭ. – М., 1979.

3. Яблонский Л.Т. Саки Южного Приаралья (археология и антропология могильников). – М.: Институт археологии РАН, 1996.
4. Жданко Т.А. Проблема полуседлого населения в истории Средней Азии и Казахстана // СЭ. – М., 1961.
5. Вайнберг Б.И. Памятник раннего железного века в Северной Туркмении // Каракумские древности. – Ашхабад, 1977.
6. Вишневская О.А. Культура сакских племен низовьев Сырдарьи в VII–VI вв. до н. э. // Тр. ХАЭЭ. – М., 1973.
7. Акишев К.А. Саки Азиатские и скифы Европейские: Общее и особенное в культуре // Археологические исследования в Казахстане. – Алма-Ата, 1973.
8. Литвинский Б.А. Ареал древнепамирской культуры // Памироведение. – Душанбе, 1985.
9. Виноградов А.В., Лопатин С.В., Мамедов Э.Д. Кызылкумская бирюза // СЭ. – М., 1965.
10. Мавлонов У., Махкамова Д. Маданий алоқалар ва савдо йўллари. – Тошкент: Akademiya, 2004.
11. Пьянков И.В. Средняя Азия в известиях античного историка Ктесия. – Душанбе: Дониш, 1975.
12. Трофимова Т.А. Приаральские саки (Краниологический очерк) // МХЭ. – М., 1963.
13. Литвинский Б.А. Оружие населения Памира и Ферганы в сакское время (боевые топоры, кинжалы, наконечники стрел) // Материальная культура Таджикистана. – Душанбе: Дониш, 1968.
14. Хазанов А.М. «Военная демократия» и эпоха классообразования // Вопросы истории. – М., 1968.